



SMETALAR IJROSI HISOBI VA HISOBOTINING NAZARIY ASOSLARI

THEORETICAL FOUNDATIONS OF ACCOUNTING AND REPORTING OF BUDGET EXECUTION

¹Norquchqorov Abdulaziz
Ziyodullayevich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD). **ORCID:** 0000-0002-8207-127X,
G-mail: norquchqorovabdulaziz7@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada budget tashkilotlarida smetalarni tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bayoni keltirilgan. Budget tashkilotlarida smetalarni tuzish va tasdiqlashning zarurligi nazariy jihatdan asoslangan. Unda budget tashkilotlarida smetalarni tuzish va tasdiqlash tartibining amaldagi holatini tahlil qilish orqali mavjud muammolarni aniqlash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Budget tashkilotlarida smetalarni tuzish tartibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy taklif hamda tavsiyalar berilgan.

Eng. - This article presents the results of research aimed at improving the procedures for preparing and approving budget estimates in budgetary organizations. The necessity of developing and approving budget estimates in such organizations has been theoretically substantiated. The study analyzes the current state of the procedures for preparing and approving budget estimates and identifies existing problems. Based on the analysis, scientific and practical recommendations have been developed to improve the process of preparing budget estimates in budgetary organizations.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *budget tashkiloti, moliya yili, xarajatlar, xarajatlar smetasi, xarajatlar moddasi, daromadlar.*
❖ *budget organization, fiscal year, expenditure, expenditure estimate, expenditure item, income.*

Kirish.

O'zbekistonda davlat moliyasi va budget mablag'laridan foydalanish borasida keng miqyosda islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, budget ijrosining g'aznachilik tizimi joriy qilinishi sohada ko'plab suiiste'molchilik va ortiqcha xarajatlarning oldini olishga xizmat qilib kelmoqda. Shunday bo'lsa-da, ayrim budget tashkilotlarida kommunal xarajatlarning xarajatlar smetalarida belgilangan miqdordan oshib ketish holatlari ham mavjud. Buning sabablari nafaqat smetalar ijrosiga mas'ul shaxslarning me'yoriy

hujjatlar bilan yetarlicha tanish emasliklari, balki ayrim hollarda beparvoliklari bilan ham izohlanadi.

2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishidan iborat Taraqqiyot strategiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini ta'minlagan holda davlat budgetining barcha darajalarida mutanosiblikni saqlash, mahalliy budgetlarning daromad qismini

mustahkamlashga qaratilgan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda davlat mablag'lari haqidagi ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1].

Davlat budjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, budjet mablag'laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qarori [3] qabul qilingan. Ushbu qarorda budjet mablag'laridan tejab, samarali va maqsadli foydalanish hamda budjet va smeta-shtat intizomini mustahkamlash uchun budjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish nazarda tutilgan.

Ma'lumki, budjet tashkilotlarini budjetdan mablag' bilan ta'minlash, ularning budjetdan tashqari daromadlari va xarajatlari, shuningdek, mazkur mablag'lardan foydalanish qat'iy rejalashtirilgan holda tuzilgan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi. Bu esa buxgalteriya hisobining asosiy funksiyalaridan biri bo'lgan nazorat orqali budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobiga xarajatlar smetasi ijrosini nazorat qilish vazifasini yuklaydi. Bundan tashqari, budjet tashkilotlari tomonidan tuziladigan hisobotlar budjet tashkilotining kelgusi moliya yili uchun budjetdan mablag'larni rejalashtirishda zarur bo'ladigan moliyaviy axborotlarni shakllantirish imkonini beradi [2]. Bu esa, o'z navbatida, budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash hamda ro'yxatdan o'tkazish tartibini takomillashtirish masalasi ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilmaganligini, tanlangan mavzuning yuqori dolzarbligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Davlatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilashda, davlat mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishi, shuningdek, davlatning mol-mulki va majburiyatlari bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilinishida budjet hisobining ma'lumotlariga asoslaniladi.

M. Ostonoqulovning fikricha, xarajatlar smetasi asosiy reja hujjati hisoblanib, tashkilotni saqlash uchun budjetdan beriladigan, kvartallar bo'yicha taqsimlanadigan xarajatlar va ularning maqsadli yo'nalishi hamda hajmini aniqlaydigan hujjatdir [4].

Saxartsevaning fikricha esa, budjet tashkilotlari smetasi asosiy reja hujjati bo'lib, olinadigan daromadni tasdiqlaydigan va xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat beradigan, mablag'larning yo'nalishi va hajmini aniqlaydigan, yil davomida o'z funksiyasi va maqsadini amalga oshiradigan hamda budjetni ijro etadigan hujjat hisoblanadi [5].

Budjet tashkilotlarida smeta asosiy hujjat hisoblanadi. Unda maqsadli tushumlar, ularning hajmi va mablag'lardan foydalanish tartibi ko'rsatiladi hamda tashkilotni yil davomida saqlab turish uchun zarur mablag'lar ajratilishi mumkin. Smetaning ajralmas qismi – mablag' ajratish rejasi bo'lib, u kvartallar bo'yicha taqsimlanadi va yillik summa ko'rsatiladi.

Smetadan farqli ravishda, budjetdan maqsadli pul ajratmalari quyidagi iqtisodiy klassifikatsiya bo'yicha turkumlanadi:

ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (bolali oilalarga nafaqa, kam ta'minlanganlarga moddiy yordam, stipendiya va boshqalar);

ish haqidan ajratmalar;

kapital qo'yilmalar (Davlat investitsiya dasturida ko'zda tutilgan va manzilli ro'yxat asosida);

boshqa xarajatlar.

Ibragimov va Sugirbayev ta'kidlaganidek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

tomonidan mablag' ajratish smetasi va rejasining shakllari tasdiqlanadi. Adabiyotlarda keltirilishicha, smetalar quyidagicha guruhlanadi: individual, yig'ma va markazlashgan tadbirlar smetasi. Budget tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasi ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish orqali budget va budgetdan tashqari mablag'lar smetalari ijrosi jarayonida moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari, joriy hamda yakuniy moliyaviy natijalar bo'yicha axborotlar shakllantiriladi va taqdim etiladi [9].

S. Mehmonovning ilmiy ishlarida yoritilganidek, budget tashkilotlarida smeta tuzish bilan bog'liq buxgalteriya hisobining vazifalariga quyidagilar kiradi:

daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi jarayonidagi muomalalarni hujjatlashtirish va hisob registrilarida aks ettirish;

budget tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi natijalarini shakllantirish;

budget ijrosiga oid buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish va hisobotlarni tuzish;

buxgalteriya hisobini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va boshqalar [6].

Xarajatlar smetasi — tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkilotlar uchun xarajat moddalari bo'yicha ko'zda tutilgan, budgetdan ajratilgan mablag'lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi. Budget tashkilotlari tomonidan belgilangan tartibda budget va budgetdan tashqari mablag'lar daromadlari va xarajatlari bo'yicha smetalar tuziladi, tasdiqlanadi va ijrosi ta'minlanadi. Bunda O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgetlarida hamda mahalliy budgetlarda turuvchi tashkilotlarni moliyalashtirish ular uchun tasdiqlangan xarajatlar smetalari asosida amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va xarajatlarni qoplash uchun budgetdan ajratiladigan mablag'lardan tashqari boshqa daromad manbalari mavjud bo'lgan budget tashkilotlari budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromad va xarajatlar smetalarni tuzishlari zarur.

Budget tizimi ko'p tarmoqli bo'lib, unda budget tashkilotlari alohida ahamiyatga ega. Budget tashkilotlari — bu davlatning aniq funksiyalarini amalga oshirish maqsadida belgilangan tartibda budget mablag'lari hisobiga saqlanadigan muassasalardir. Ular davlat budgetidan ajratiladigan mablag'lar va budgetdan tashqari tushumlar hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadi hamda ushbu mablag'lar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi.

Tuychiyev, Ostonsqulov, Ibragimov va Tursunovlarning yondashuviga ko'ra, budget tashkilotlarida budget va budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasi ijrosining buxgalteriya hisobi yuritilishi orqali ushbu mablag'lar smetasi ijrosi jarayonida aktivlar va ularning manbalari bo'yicha axborotlar shakllantiriladi hamda taqdim etiladi [7].

Ilmiy tadqiqot ishidan qisqacha xulosa shuki, xarajatlar smetasini to'g'ri tuzish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarga qat'iy amal qilinsa, xato va kamchiliklar kuzatilishi ehtimoli keskin kamayadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Budget tashkilotlarida smeta tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirishning budget tashkilotlari hamda budget ijrosi jarayonida axborotlardan foydalanuvchilar uchun ahamiyati, shuningdek, uning davlat budjeti bilan bevosita bog'liqligini aniqlash hamda mazkur masalalarni kengroq izohlab berish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

A. Ostonsqulovning ilmiy monografiyasida qayd etilganidek, ma'lumotlar raqamlar orqali


ifodalanganligi sababli tadqiqotda asosan miqdoriy va sifat usullaridan foydalanilgan [8].

Tadqiqot jarayonida amaldagi holat, xorijiy tajriba hamda mavjud ma'lumotlar o'rganilib, tahlil qilingandan so'ng, asosan budjetdan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarining smeta ijrosi hisobi va hisobotlari chuqur tahlildan o'tkazildi hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Budjet tashkilotlarida smeta tuzish jarayoni budjet jarayonidan boshlanadi. Budjet

jarayoni — bu budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning shakllanishi, tuzilishi hamda ijrosini nazorat qilish, budjet tizimi budjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'z ichiga oluvchi murakkab jarayondir. Shu nuqtai nazardan, budjet tashkilotlarining smetalari bilan bog'liq asosiy bosqichlarni quyidagi sxema (1-rasm) orqali ifodalash mumkin.



1-rasm. Budjet jarayoni va uning smetalar bilan bog'liqligi¹

Davlat budjeti jarayoni yuqorida ko'rsatilgan barcha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu esa, o'z navbatida, davlat budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari hamda budjetdan mablag' oluvchilarning smetalari bilan uzviy bog'liq sanaladi.

Smetalar bilan bog'liq moliyaviy munosabatlarni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin, ya'ni:

- ❖ smetalarni tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish;
- ❖ smetalarning ijrosi.

Budjetlarni shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonida budjet tashkilotlari hamda budjetdan mablag' oluvchilarning smetalari jamlanadi. Demak, smetalarni tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va

ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari bevosita davlat budjeti ijrosi bilan chambarchas bog'liqdir.

Budjetni ijro etish va nazoratni amalga oshirish, budjet ijrosiga oid hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish kabi jarayonlarda budjet tashkilotlari hamda budjetdan mablag' oluvchilarning smetalari ijrosi bilan bog'liq munosabatlar amalga oshiriladi. Shunday qilib, budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilarning smetalarni tuzish va ularning ijrosini ta'minlash davlat budjetini shakllantirish va ijro etish jarayoni bilan uzviy bog'liq hisoblanadi.

Budjet tashkiloti — bu davlat funksiyalarini amalga oshirish maqsadida belgilangan tartibda davlat hokimiyati

¹Muallif tomonidan tuzilgan.

organlarining qaroriga binoan tashkil etilgan alohida yuridik shaxs bo'lib, ularning smetalari bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni olish, o'rganish va tahlil qilish nisbatan qulay hisoblanadi. Shu bois, tadqiqot aynan ushbu doirada olib borilgan.

Budjet tashkilotlari tomonidan vaqtinchalik xarajatlar smetalari keyingi moliya yilining birinchi choragi uchun oyma-oy tarzda, belgilangan shaklda tuziladi va tasdiqlanadi. Bunda vaqtinchalik xarajatlar smetasida nazarda tutiladigan budjet mablag'lari o'tgan moliya yilining oxirgi choragidagi ajratmalardan oshmasligi lozim. Zarurat tug'ilganda, qonun hujjatlarida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun xarajatlar summasi aniqlashtirilishi mumkin [2].

Kelgusi moliya yilining birinchi choragi uchun budjet tashkilotlarining vaqtinchalik xarajatlar smetalari joriy moliya yilining 25-dekabriga qadar tuziladi. Vaqtinchalik xarajatlar smetalari asosiy xarajatlar smetasi tasdiqlanguniga qadar amal qiladi. Shu bilan birga, ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan xarajatlar smetasida birinchi chorak uchun budjetdan ajratiladigan mablag'lar vaqtinchalik xarajatlar smetasida nazarda tutilgan summadan kam bo'lmisligi shart.

Moliya organlari tomonidan belgilangan budjet parametrlariga hamda tegishli ko'rsatmalarga muvofiq budjet tashkilotlari bosh hisobchisi yoki iqtisodchisi tomonidan xarajatlar smetasi tuziladi. Xarajatlar smetasi budjet tashkiloti tomonidan yil oylari bo'yicha taqsimlangan holda quyidagicha tuziladi:

- ❖ xarajatlarning birinchi-uchinchi guruhleri bo'yicha moddalar kesimida ajratilgan holda;

- ❖ to'rtinchi guruh xarajatlari esa moddalar kesimida ajratilmasdan tuziladi.

Xarajatlar smetasiga quyidagilar ilova qilinadi:

- ❖ to'rtinchi guruh xarajatlari yoyilmasi;
- ❖ davlat ehtiyojlari uchun kichik tadbirkorlik subyektlaridan ustuvor tartibda

xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) guruhleri bo'yicha xarajatlar yoyilmasi.

Xarajatlarni hisoblab chiqishda quyidagi me'yorlarga amal qilinadi:

- ❖ tasdiqlangan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish dasturlari;

- ❖ davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar;

- ❖ budjet tashkilotlari xarajatlarining tasdiqlangan normativlari;

- ❖ tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan narx va tariflari.

Shuningdek, xarajatlar smetasini tuzishda:

- ❖ ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar qonunchilikda belgilangan lavozim maoshlari, stavkalar, ustamalar va shtat normativlariga muvofiq kiritiladi;

- ❖ pedagog xodimlar uchun ish haqi o'quv rejasiga asoslangan tarifkatsiyalar va qo'shimcha to'lovlarni inobatga olgan holda aniqlanadi;

- ❖ tibbiyot xodimlari ish haqi bazaviy stavkalar va amaldagi shartlarga muvofiq belgilanadi;

- ❖ stipendiya xarajatlari tegishli miqdor va to'lov tartibiga ko'ra hisoblanadi;

- ❖ yagona ijtimoiy to'lov xarajatlari belgilangan stavkalar asosida kiritiladi;

- ❖ majburiy sug'urta mukofoti xarajatlari o'tgan yilgi haqiqiy ish haqi xarajatlaridan kelib chiqib belgilanadi;

- ❖ aloqa va telekommunikatsiya xizmatlari xarajatlari abonent raqamlari soni hamda tasdiqlangan tariflardan kelib chiqib aniqlanadi;

- ❖ ovqatlanish xarajatlari tasdiqlangan natural me'yorlar asosida hisoblanadi;

- ❖ dori-darmon xarajatlari bir bemorga to'g'ri keladigan kunlik me'yor asosida belgilanadi;

- ❖ yumshoq anjomlar xarajatlari mavjud moddiy ta'minot me'yorlari doirasida hisoblanadi;

❖ qo'riqlash, ijara, safar, epizootik kasalliklarga qarshi kurashish kabi xarajatlar tegishli normativ va tariflarga muvofiq belgilanadi.

Xarajatlar smetalarini tuzishda har bir xarajat iqtisodiy jihatdan asoslangan hisob-kitoblar bilan asoslanishi, shuningdek, amaldagi budjet qonunchiligi va normativ-

huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi zarur.

Tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan Termiz kasb-hunarga tayyorlash maktabining 2023-2024-yillar uchun tuzilgan xarajatlar smetasi tahlili shuni ko'rsatadiki, budjetdan moliyalashtirish bilan bog'liq xarajatlar hajmi qisqargan (1-jadval).

1-jadval

Termiz kasb-xunarga tayyorlash maktabining 2023-2024-yillar uchun tuzilgan xarajatlar smetalari rejasi*

Ko'rsatkichlar	Yillar		Farqi	
	2023	2024	Summa	Foiz
Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar. Shundan,	2394795	1388261,8	-1006533,2	58,0
Asosiy ish haqi	2251344	1330827,7	-920516,3	59,1
Direktor jamg'armasi	86175	33396,1	-52778,9	38,8
Ish beruvchining ajratmalari. Shundan,	589428	293003	-296425	49,7
Ijtimoiy soliq (yagona ijtimoiy to'lov)	588090	292390	-295700	49,7
Boshqa xarajatlar. Shundan,	643621	296526	-347095	46,1
Tovar va xizmatlar bo'yicha xarajatlar	506880	273026	-233854	53,9
Asosiy vositalar bo'yicha xarajatlar	76898	0	-76898	0,0
Jami	3627844	1977790,8	-1650053,2	54,5

*Termiz kasb-xunarga tayyorlash maktabining moliyaviy hisobotlari asosida tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2023-yil va 2024-yillarda budjetdan moliyalashtirish bo'yicha kollejda birinchi, ikkinchi va to'rtinchi guruh xarajatlari xarajatlar smetalari bo'yicha xarajatlarning iqtisodiy tasnifi asosida rejalashtirilgan. Ushbu xarajatlar barcha xarajat guruhlari va moddalari bo'yicha o'rganilayotgan yilda pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, 2023-yilda kollejni budjetdan moliyalashtirish hajmi jami 3.627,8 mln. so'mga rejalashtirilgan bo'lsa, 2024-yilda esa 1.977,8 mln. so'mlik moliyalashtirish rejalashtirilgan. 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 1.650,0 mln. so'm yoki 54,5 foizga moliyalashtirish hajmi kamaygan.

Ushbu holatni xarajatlar guruhlari bo'yicha o'rganadigan bo'lsak, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 100,5 mln. so'm yoki 58 foizga xarajatlar kam rejalashtirilgan. Ish beruvchining ajratmalari bo'yicha 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 296,4 mln. so'm yoki

49,7 foizga xarajatlar rejasi kamaygan. Boshqa xarajatlar guruhi bo'yicha ham shu kabi holatni ko'rishimiz mumkin — 2024-yilda 296,5 mln. so'mlik xarajatlar rejalashtirilgan va o'tgan yilga nisbatan 347,1 mln. so'm yoki 46,1 foizga xarajatlar kam rejalashtirilgan.

Mazkur holat Termiz kasb-hunarga tayyorlash maktabida o'quvchilar kontingentining qisqarganligi va budjetdan moliyalashtirish qisqartirilib, to'lov-kontrakt asosida o'qitishni yo'lga qo'yish belgilanganligi bilan izohlash mumkin.

Budjet tizimi budjetlari xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo'yicha boshqa xarajatlarni aniqlashda o'zgacha ko'rsatkichlar va uslublar qo'llanishi mumkin, ularning asoslanganligi xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazuvchi tegishli budjet mablag'larini taqsimlovchilar va moliya organlari tomonidan tekshiriladi.

Xulosa va takliflar.

Budjet tashkilotlarida xarajatlarning buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlilini

takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar olindi:

Umuman olganda, budjet tashkilotlari xarajatlar smetalaridagi ko'zda tutilgan xarajatlarning katta qismi davlat budjetidan ajratilarkan, ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash hamda ular to'g'risidagi axborotlarni shakllantirish muhim masalalardan biri sanaladi. Buning uchun budjet tashkilotlari smetalaridagi mablag'lar hisobi qonunchilik asosida yuritilishini ta'minlash zarur.

Hozirgi kunda xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning ochiqqligi va tashkilot xodimlarining faol ishtiroki orqali birinchi navbatda xolislik va ma'lumotlar shaffofligi ta'minlanadi. Shuningdek, budjet mablag'larini shakllantirish va sarflash yo'nalishlari qay tarzda olib borilayotganligi to'g'risida aniq va tezkor ma'lumotlar olish imkoniyati oshadi.

Budjet tashkilotlarida smetalarni tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirish bilan bog'liq izlanishlar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq:

budjet tashkilotlarining shtatlar jadvalini namunaviy shtatlar jadvali asosida shakllantirilishini ta'minlash, shuningdek ta'lim muassasalarida tarifikatsiyalarni tuzish va shakllantirishda xodimlar tarkibi bo'yicha vakant lavozimlarga yo'l qo'ymaslik hamda ta'lim va tibbiyot tashkilotlarida kontingentlarning o'zgarishi bilan bog'liq jihatlarni e'tiborga olish;

xarajatlar smetasining to'rtinchi guruhi – kommunal xizmat xarajatlarini rejalashtirishda ilova qilinadigan hisob-kitoblarning asosliligini ta'minlash;

budjet tashkilotlarining smetalarni ro'yxatdan o'tkazishning elektron tizimini yanada kengaytirish orqali smetalarni tuzish jarayonini soddalashtirish hamda smetalarga ortiqcha o'zgartirish kiritilishining oldini olish;

smetalarning ijrosi hisobini tashkil etish va yuritish, smetalar ijrosiga oid moliyaviy hisobotlar tahlilini amalga oshirish hamda nazoratni takomillashtirish bo'yicha uslubiy asoslarni yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi" qonuni. 2022-yil 25-dekabr, O'RQ-657-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrda "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi 414-sonli qarori.
4. Ostonoqulov M. Buxgalteriya hisobi. Toshkent.: Fan va texnologiyalar. 2007.
5. Mehmonov S.U. Budjet hisobi. O'quv qo'llanma. Toshkent.: Fan va texnologiyalar. 2012.
6. Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Budjet hisobi. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya" 2018. 428 b.
7. Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B. "Budjet nazorati va auditi" O'quv qo'llanma / T.: «infoCOM.UZ». 2009. 192 b.